



ANALYSIS OF DIALECTISMS IN THE POETRY OF THE POETESS SHAMS

Sadullayeva Sevara

Student of the Faculty of Philology of Urganch State University

Annotation

In the article, dialectisms in the poetry of Shaira Shams are analyzed.

Key words: Dialectisms, elements of art, examples from Musatad, opinions of scientists, examples of the Oghuz dialect.

SHOIRA SHAMS LIRIKASIDAGI DIALEKTIZMLAR TAHLILI

Sadullayeva Sevara

Urganch davlat universiteti filologiya fakulteti talabasi

Anotatsiya

Maqolda Shaira Shams lirikasidagi dialektizmlar tahlilga olingan. Ya'ni harbitta shevaga oid so'zning qo'llanilish doirasi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Dialektizmlar, badiiylik unsurlari, mustazoddan namunalar, olimlarning fikrlari, o'g'uz lahjasiga oid namunalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

Samixon Ashirboyev "O'zbek dialektologiyasi" Reshetov "Shevaga oid materiallar", M.Yo'ldoshev "Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi".

Hozirgi davr tilshunosligida dolzarb masalalaridan biri bu **dialektizm** ya'ni sheva hisoblanadi.

Bu borada tilshunos olimlarimiz ko'plab izlanishlar olib borganlar jumladan **Ashirboyev** ko'plab izlanishlari shevashunoslik bo'yicha olib borilgan. Professor **E.D. Polivanov** "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" nomli asarida (1993) o'tgan asrning birinchi choragidagi o'zbek tili o'zining ko'p shevaliligi bilan boshqa turkiy tillardan ajralib turishi haqida ma'lumot bergan edi. **Prof. V.V. Reshetov** esa o'zbek tili dialektal kartasining rang-barangligini uning etnogenezisidan qidirish lozimligini aytadi. O'zbek dialektologiyasi ijtimoiy dialektni o'rganmaydi, ijtimoiy qatlamlar tili umuman boshqa soha tomonidan tadqiqqa olinadi. Bugungi kunda bu soha bo'yicha ham ko'plab ijodkorlarimizning ijodiy na'munalari tadqiqqa olinmoqda jumladan biz ham ushbu yo'nalish yuzasidan Shaira Shams lirikasidagi ayrim dialektizmlarga to'xtaldik.

Ko'klam **isidan** zulfi muattar keldi,
Shavqin **bitara** nechaki daftar keldi.
Xajrinda dilim yondi necha yil, **naylay**
Unut **mani** desam yana battar keldi.



Shoira ushbu she'riy qatorlarida **is,bitara,xajrinda,naylay,mani** kabi dialekt namunalaridan foydalangan. Har bitta ijodkor borki ko'pincha o'z ixlosmandlariga adabiy til namunalarini ulashishni istaydi lekin shoira she'riyatidagi xorazm shevasiga oid namunalar uning ijodidagi uyg'unlikni shevada ham mutanosib ekanligini yana bir bor isbotlagan.

Ochurman she'r ila dil bahrimi **man**,
Gahi ko'zdin **toshurib** bahrimi **man**.
Tanibdurman o'zimni izlab oxir,
Chu aruzdin topib har bahrimi **man**.

Bu namunadagi dialektlarda ham o'zgachalik mavjud. Misol uchun **toshurib va tanibdurman so'zlarida badiiylik unsurlari** yetakchilik qilgan unda hech qanday sheva motivlari yoq lekin misralar oxiridagi **men** kishilik olmoshining **man** shaklida qo'llanilishi ko'zga tashlanadi.

Dudog'in no'shini **ichmakdin** avval,
Tilim zikrida "Bismilloh" keldi.

Lab-dudog' varinatini qo'llagan bilamizki xorazm shevasining o'g'uz lahjasida **lab-do'doq** ko'rinishida ifodalanadi. **Ichmak** so'zida esa **affiksda sheva shakli** qo'llangan hisoblanadi shoiraning ijodiy mahorati ham shundaki, ayrim o'rinlarda so'zlarda dialekt qo'llasa, ayrim o'rinlarda affiksial dialekt namunalarini keltiradi. Misol uchun ushbu yuqoridagi **ichmak** so'zida ham **harakat nomi shaklining** sheva variantidan foydalangan **moq** affiksining **mak** shaklidan va yuqoridagi bitara so'zida bitmoq ya'ni yozmoq uchun degan ma'noni ifodalamoqda

Mustazoddan namunalar
Ay gul, sani dab bir o'toyi bog'inga **galdim**,
Navro'zi shabinda,
Dotib iforing jon **barali** chog'inga **galdim**,
Vasling tarabinda.

Ushbu holatda **tatib** ko'rmoq so'zining shevadagi ko'rinishi **dotib** shaklida, **bermoq** so'zi esa **barali** shaklida qo'llanilgan.

Xajring tumani mijjada bir **domchi** suv o'ldi,
Go'z tushsa yuzinga.

Tomchi so'zi **domchi** shaklida, ko'z so'zi esa fonetik jihatdan **go'z** shaklida berilgan. **bo'ldi** so'zi fonetik hodisaga uchrab o'ldi holatida

Xusning bila ravshan sara dargohinga **galdim**,
Ishqing sababinda.
Mandek yana ming oshig'inga dayr makondur,
Devonalar ichra.
Man Qays kabi jon **barara** ohinga **galdim**,



Xuddi ushbu holatni yuqorida ham kuzatdik demak bu jarayonda shevadagi affikslar o'rtasidagi sinonimlikni kuzatish mumkin. **Barara-barali** ikalasi ham bermoq uchun ma'nosida (ara-ali=moq)

Ul Layli labinda.
O'ldirmaka furqatda mani hech nazaring yo'q,
Parvoya galdas.
Ayla karaming, nola qilib shohinga galdim,
Bulbul adabinda.
Shoira navo qildi yana dardini aytib,
Xiyvoqi tilinda.
Olmog'a duo Ogahidek shohinga galdim,
Devon talabinda.

Shabinda, tarabinda, sababinda, labinda, adabinda, tilinda, talabinda-so'zlarida e'tibor bergan bo'lsangiz so'zlarda fonetik jihatdan **n** tovushi orttirilgan. Shoiraning **mustazod** namunasida esa boshdan oyoq **dialektizmga** murojaati ko'zga tashalanadi. Har bitta so'zda shevamizdagi so'zlardan unumli foydalangan ijodkor bu namunalarning o'qishligini oshirgan hisoblanadi.

Ay gul-ey gul
Sani-seni
Bir o'toyi-o'tish joyidek
Bog'inga-bog'ingga
Galdim-keldim
Dotib-tatib ko'rmoq
Jon barali-jon bermoq

domchi suv-tomchi suv
go'z tushsa-ko'z tushsa
sara-yaxshi
jon barara-jon bermoq uchun
o'ldirmaka-o'ldirmoq uchun
xiyvoqi tilinda-xiva tilida
tarabinda-tarafida

Xulosa sifatida shuni aytib o'tish lozimki, shevaga oid har bitta so'z, har bitta manba tilimiz uchun ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa uni she'riy namunalarda, shoira ijodida so'zlarning xorazm shevasida qo'llash esa umuman boshqa holatdir. Aslini olganda xorazm shevasi o'zining shiradorligi bilan asrlar davomida alqovga sazovor bo'lib kelgan. Shuning uchun ham aynan maqolamizda Shoira Shams lirikasidagi dialektlarga to'xtaldik. Lekin har bir dialekt namunasi xoh u matn ko'rinishida bo'lsin xoh lirika namunasi har bitta tilshunos, shevashunos uchun o'rganilishi va tadqiqqa olinishi lozimdir.

ⁱ Ashirboyev Samixon "O'zbek dialektologiyasi" Toshkent -2011 4-5 betlar

ⁱⁱ Reshetov "Shevaga oid materiallari"